

## QO'SHMA GAPLARNI O'QITISHGA OID METODIK USULLARI

**Dushatova Shoxsanam Baxtiyor qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi, [sh.dushatova@pf.fdu.uz](mailto:sh.dushatova@pf.fdu.uz)*

**To'lqinboyeva Dinoraxon Xasanboy qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Ona tili darsligida o'tiladigan qo'shma gaplarni, hamda ularni yasash uchun xizmat qiluvchi vositalarning sintaktik xususiyatlarini o'rgatish va o'qitishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlari.** Sintaksis, qo'shma gap, bog'langan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, kesim, bog'lovchi, yuklama.

**Annotation.** In this article, methodological recommendations are given for the teaching and learning of syntactic support for the formation of compound sentences in the mother tongue textbook.

**Keywords and expressions.** Syntax, conjunction, dependent clause, non-conjunctive clause, subordinate clause, participle, conjunction, preposition.

**Аннотация.** В данной статье приведены методические рекомендации по обучению и обучению сложным предложениям, а также синтаксические особенности средств, используемых для их составления.

**Ключевые слова и выражения.** Синтаксис, конъюнктивное предложение, конъюнктивное предложение, неконъюнктивное предложение, сослагательное наклонение, предложение, союз, предлог.

Gap ustida ishlash o'quvchilarning nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Gap ustida ishlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni sintaktik jihatdan tog'ri va aniq gap tuzib, tugallangan fikr bildirishga o'rgatish hisoblanadi. Avvalo, gap grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, tugallangan mazmun va tugallangan intonatsiyaga ega bo'lgan nutq birligi bo'lib, aloqa maqsadida xizmat qiladi.

Gaplar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma gaplarga bo'linadi. Qo'shma gap

sintaksisi ona tili darsligining 9-sinfida o'quvchilarga o'rgatiladi. Bu, albatta, o'quvchilar uchun o'rganishi murakkab va qiyinchiliklar tug'diradigan mavzu hisoblanadi.

Tuzilishi jihatdan sodda gaplarga o'xshash bo'lgan ikki yoki undan ortiq gaplarning mazmun va intonatsiyaga ko'ra birikuvidan tashkil topgan gaplar qo'shma gaplar deyiladi. Qo'shma gaplar esa qismlarining mazmunan o'zaro munosabati, tuzilishi va birikishiga ko'ra 3 turli bo'ladi: bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Gaplarni tahlil qilishda, avvalo, uning tuzilishiga ko'ra turi aniqlanadi. Gap uchun eng asosiy belgi bu kesimlikdir. Kesimning soni sodda va qo'shma gaplarga ajratishga asos bo'ladi. Shunday ekan bitta kesimdan tashkil topgan gaplar sodda gap deb ataladi. Ikki va undan ortiq gapning mazmun va grammatik shakl va ohang asosida birikuvidan qo'shma gaplar hosil bo'ladi. Uning tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan bog'lovchilar, yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar, fe'l shakllari orqali bog'lanadi.

Qo'shma gaplarni o'quvchilarga o'rgatishdan, avval, ularni quyi sinflarda olgan bilimlarini sinab olish zarur. Chunki gaplar tuzilishini o'rganishda yordamchi so'zlar, gap bo'laklari, so'z turkumlari, singari mavzularning ahamiyati katta hisoblanadi. Avvalo, qo'shma gap va sodda gaplarning o'quvchilar ongida farqlanishini nazoratga olish zarur. Gapdagi kesim, kesimlik shakllariga ega bo'lsagina, mustaqil kesim hisoblanadi. Ya'ni u o'z navbatida tasdiq, inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nolariga ega bo'lishi va alohida hukmni ifodalashi kerak bo'ladi. Lekin bunday gaplardagi kesimlar uyushiq bo'laklar tarzida bo'lsa, ular qo'shma gap hisoblanmaydi. Shuning uchun o'quvchilar ongida "qo'shma gap va sodda gap kesimga qarab aniqlanadi", - degan fikr uyg'onishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Masalan: Kasbimiz- o'qitish, sodda gap. Kasbimiz- o'qitish va o'rgatish qo'shma gap.

Gap tarkibida ikki va undan ortiq birliklar(so'z, ibora, so'z birikmalari) bilan ifodalangan kesimni shakllantiruvchi vositalar faqat keyingi kesim tarkibida ifodalanib, barchasiga aloqador bo'lsa, bunday kesimli gap uyushiq kesimli gap

sanaladi. Bularni tushuntirish esa o'qituvchi zimmasiga yuklanadi. Demak, ikki va undan ortiq kesimli gaplar (agar uyushiq bo'lmasa) qo'shma gap hisoblanadi. Hamda u birdan ortiq gaplarning mazmun va gramatik jihatdan birikuvidan hosil bo'ladi. Qo'shma gaplarni o'qitishda eng, avvalo, uni yasashida xizmat qiluvchi, qo'shimcha va vositalar haqida ma'lumot bo'lish zarur, O'z navbatida qo'shma gaplar turli guruhlarga bo'linadi:

1. Bog'langan qo'shma gap. Ushbu gap tarkibidagi komponentlar, ya'ni, sodda gaplar bir-biri bilan biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi va inkor munosabatlarni ifodalovchi teng bog'lovchilar vazifasida keluvchi -u, -yu, -da yuklamalari vositasida bog'lanadi. Ba'zi bog'lovchilar yuklama hamda bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin. Bularga: ...na-na inkor bog'lovchisi, o'xshatish chog'ishtirish bog'lovchilari go'yo, go'yoki qo'shimchalarini misol qilin ko'rsatishimiz mumkin. Bular bog'lovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli bo'laklarga inkor ma'nosini yuklaydi. Misol: Na ishida unum bor, na hayotida ma'no. Yuklama vazifasini bajarganda esa mazmundan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor ma'nosini ko'rsatadi. Misol: Madina na o'qiydi, na ishlaydi.

O'quvchilarga ushbu masalalarni yoritishda, osonroq bo'lishi uchun turli jadvallardan yoki "VENN diagrammasi" usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

2. Ergashgan qo'shma gaplar teng huquqli bo'lmagan sodda gaplardan tashkil topadi. Misol: Bo'lgan voqealarni hammasini Umid aytib berdi, chunki bu xotindan yashiradigan siri yo'q edi. Bu gapda birinchi qism ergash gap, ikkinchi qism esa bosh gapdir. Bosh gap mazmunan mustaqildek ko'rinsada, ergash gap tomonidan to'ldiriladi va izohlanadi. Bosh gap va ergash gapni aniqlash quyidagi usullar bilan aniqlanadi: Sabab (chunki, negaki), maqsad (toki) bog'lovchilari, deb so'zi, so'roq olmoshlari ergash gap tarkibida keladi. Shuning uchun, shu tufayli, shu sababli kabi ko'makchili qurilmalar, -ki yuklamasi, nisbiy so'zlar esa bosh gap tarkibida keladi.

3. Qo'shma gaplarni bog'lanishida ohang ham muhim vazifani bajaradi. Hech qanday bog'lovchisiz ana shu ohang ya'ni, intonatsiya yordamida bog'langan gaplar

bog'lovchisiz qo'shma gaplar deyiladi. Misol: Manzura- chiroy qiz, u- onasiga o'xshaydi. O'z navbatida bog'lovchisiz qo'shma gaplar ma'no turlarini farqlash zaruriyati yuzaga keladi. Uni o'quvchilarga tushuntirishning oson yo'li sifatida tinish belgilariga murojat qilamiz.

a) bir paytda yoki ketma-ket bo'lgan voqeani bildirsa, vergul (,) qo'yiladi. Misol: Bahor keldi, gullar ochildi.

b) qismlari zid munosabatni bildirsa tire (-) qo'yiladi. Misol: Suv keldi- nur keldi. (Maqol)

c) ma'nolari izohlansa, ikki nuqta (:) qo'yiladi.

d) ikkinchi gao birinchi gapdagi biror bo'lakning ma'nosini izohlasa, birinchi gapdan keyin ikki nuqta (:) qo'yiladi.

Shuningdek o'quvchilarga dars davomida badiiy asarlardan audio parchalar eshittiriladi va bog'lovchisiz qo'shma gaplar aniqlanib kerakli tinish belgilarni topishlari tushuntiriladi.

Xulosa qilsak, o'quvchilar faqat qoida yodlash bilan cheklanmay, balki shu yodlagan qoidalarini kundalik hayotda ham qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishlarini ta'minlash hozirgi zamon ona tili o'qituvchilarining asosiy vazifasidir. Shunday ekan o'quvchilar qo'shma gap turlarini o'rganish vaqtida har bir so'zning semantik ma'nosiga e'tibor bilan qarab tahlil qilishsa, haqiqiy bilimga erishadilar. Til bo'yicha egallangan bilim o'quvchilar tomonidan amaliyotga qo'llansagina, o'qituvchi o'z maqsadiga erishgan hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. H.Abdurahmonov, O.Ahmedov "O'zbek tilini va adabiyoti" T;-1975; B 113
2. B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" T;- 2006; B 164
3. N.Rasulova "Ona tilidan ma'ruzalar". 2018-B 82
4. Dushatova, S. (2022). EVFEMIZM TUSHUNCHASI TAHLILI.
5. Dushatova, S. (2022). LINGUISTIC AND SOCIAL ORIGINATION OF TABOOS. *Science and innovation*, 1(B6), 318-321.

6. Dushatova, S., & Tursunaliyev, M. (2022). CHET TILLARINI O'RGANISHNING INSON RIVOJLANISHIGA TASIRI. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 133-138.
7. Dushatova, S., & Azamov, M. (2022, November). SO'Z TURKUMLARI TASNIFI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS*. (Vol. 1, No. 6, pp. 89-95).
8. Dushatova, S., & qizi Norinboyeva, D. J. (2022). CHET TILIDA NUTQNI TINGLAB TUSHUNISH VA UNDA FRAZEOLOGIZMLARNING O'RNI. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(7), 66-71.
9. Dushatova, S., & Burgutova, G. (2022). CHET TILLARINI BILISHNING FOYDALARI. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(8), 40-45.
10. Dushatova, S., & Mamajonova, S. (2022). "ICEBERG PRINCIPLE" AS A STYLISTIC FEATURE OF E. HEMINGWAY'S SHORT STORY "THE OLD MAN AND THE SEA. *Science and innovation*, 1(B8), 1931-1934.
11. Shokhsanam, D., & Abdukarimova, M. (2022, December). THE ADVANTAGES OF BOOKS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. In *INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY* (Vol. 1, No. 9, pp. 169-171).
12. Mo'minova, T. (2015). ЖИСМ, ИСМ ВА ҲУСН. «ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ».
13. Mo'minov, S. (2022). ДЕЙЛ КАРНЕГИНИНГ БОШҚАРУВ ВА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТТИ ҲАҚИДАГИ ФИКРЛАРИ. *FILOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI VA UNING INNOVATSION YECHIMLARI mavzusidagi xalqaro anjuman materiallari to'plami*,.

14. Мўминова, Т. С. (2022). UPDATING THE PRINCIPLES OF THE STORY IN MODERN UZBEK LITERATURE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, 3(3).
15. Mo'Minova, T. S. (2022). BADIY ASARDA NUQTAI NAZAR VA XARAKTER IFODASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 768-774.
16. Mo'minov, S. (2016). Замонавий раҳбар ва унинг тинглаш маданияти. " Нутқ маданияти ва тилишуносликнинг долзарб муаммолари" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани.
17. Мўминова, Т. (2016). Танбеҳ бериш одоби. " Нутқ маданияти ва тилишуносликнинг долзарб муаммолари" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани.
18. Mumínov, S. (2020). Минбар салобати. *Бадий адабиётда нутқ ва услуб муаммолари*.
19. Муминов, С. М., & Мўминов, Ш. С. (2022). ШАХС МАЪНАВИЯТИНИ ЎСТИРИШДА РАЎБАТНИНГ ЎРНИ ВА УНИНГ РАЎБАР МУЛОҚОТ ХУЛҚИДА НАМОЁН БЎЛИШИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 689-696.